

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabaxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Xomitov R. X.

«O‘zbekistonning eng yangi tarixi» kafedrası dotsenti, PhD

O‘zbekiston milliy universiteti

xomitovravshan7@gmail.com

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlardagi ko‘p millatli jamiyatlarda xalqaro huquq normalardagi ishtiroki, ulardagi milliy ozchilikning huquq va erkinliklarining ta‘minlanishi kabi jihatlari tadqiq qilingan. Jumladan, mintaqada davlatlaridagi inson huquqlari, asosan, milliy ozchilikka oid davlat siyosatining mazmuni bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: millatlararo totuvlik, xalqaro huquq, inson huquqlari, hujjatlar, milliy ozchilik, diaspora, bag‘rikenglik, insoniylik, hamjihatlik.

KIRISH

Ma‘lumki, XX asrning 90 – yillari sobiq ittifoqning siyosiy tanazulga yuz tutishi hamda uning o‘rnida tarixan o‘z davlatchiligiga ega bo‘lgan suveren respublikalarning qaror topishi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari ham o‘z suverenitetini e‘lon qildi. Bu tarixiy voqea bo‘lib, natijada mintaqadagi respublika hukumatlari oldiga bir qator davr nuqtai nazaridan hamda yangi davlatchilik masalalariga oid choralarni hal etish masalalari turar edi. Jumladan, turli millat va xalqlarning hamjihatligi hamda o‘zaro munosabatlari ham yangi hukumatlarning oldiga qator vazifalarni qo‘yar edi. Shulardan kelib chiqib mintaqada davlari millatlararo masalada davlat siyosatini belgilab oldi. Aynan shu kabi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari o‘tgan vaqt mobaynida amalga oshirib borildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

1991 yildan boshlab mintaqadagi davlatlarning oldida qator vazifalar turar edi.

Jumladan,

Birinchidan, davlatchilik asoslarini yangi zamonaviy dunyo bilan hamohang holda qayta qurish;

Ikkinchidan, jamiyatda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani, qadriyatlarni tiklash;

Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish;

To‘rtinchidan, jamiyatda yangicha ijtimoiy – ma‘naviy muhitning qaror toptirish;

Beshinchidan, diniy, etnik, hududiy xavflar bartaraf etish;

Oltinchidan, dunyo hamjamiyatiga integratsiya bo'lish va o'zining zimmasiga olgan majburiyatlarni bajargan holda xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanishi lozim edi.

Buning uchun esa ko'p millatli Markaziy Osiyo davlatlarining hukumat va jamiyatlariga oldigan yangi qator vazifalarni qo'ydi. Ular:

birinchidan: fuqarolik jamiyatini qurish va davlat boshqaruvining yangi tizimini qaror toptirish hamda bu jarayonga barcha millat vakillarini jalb qila olish;

ikkinchidan: mamlakatlar milliy huquq hamda qonunchilik borasida yangi tamoyillarni ishlab chiqish hamda ozchilik huquqlarini kafolatlash;

uchinchidan: ko'p millatli jamiyatda barchani yagona mustaqillikni mustahkamlash va rivojlanish mafkurasiga safarbar qila olish;

to'rtinchidan: barcha millatlarga o'zligini anglash, tili, dini, ta'lim va axborot olishi, urf – odat va an'analaridan foydalanishga teng imkoniyat va sharoitlar yaratib yerish;

beshinchidan: millatlararo barqarorlikni saqlash;

oltinchidan: tashqi siyosatni olib borishda, xalqaro normalarga to'la rioya qilish va boshqalar.

Shulardan kelib chiqib, mintaqada davlatlari o'zining tashqi siyosatiga oid yo'nalishlari, maqsadlari hamda tamoyillarini belgilab oldi. Unga ko'ra umume'tirof etilgan qoidalar hamda milliy manfaatlar o'zaro jamlanib, dastavval, davlatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yish, shu bilan bir qatorda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a'zo bo'lib, xalqaro munosabatlar tizimda munosib ishtirok etish kabi vazifalar belgilab olindi. Bu savdo – iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy – madaniy aloqalarni mustahkamlash imkonini berar edi. Ya'ni oddiy qilib aytganda, dunyo davlatlari qabul qilgan inson huquqlari normalari respublikalarda ham amalga oshirila boshlandi.

Shundan kelib chiqib, mintaqada davlatlarning milliy ozchilikning huquqlari ta'minlanishi va xalqaro normalarning amalga oshirilishi haqida so'z borar ekan uni asosan uchta guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruhga: xalqaro hujjatlar va ularning amalga oshirilishi;

ikkinchi guruhga: mintaqaviy hujjatlar va ularning ijrosi;

uchinchi guruhga: davlatlararo shartnomalar va amalga oshirilishini kiritish mumkin. Navbatdagi vazifa aynan shu guruhlardagi holatni tadqiq qilish bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir.

Birinchi guruhga kiruvchi xalqaro hujjatlar haqida so'z borganda shuni aytish mumkinki, bunda BMT va uning ixtisoslashtirilgan tashkiloti jumladan YuNESKO muhim o'rin tutgan.

Ya'ni, xalqaro hujjatlar va ularning amalga oshirilishi haqida so'z borar ekan, dastlab, ularning ro'yxati va mazmuniga to'xtalib o'tsak, asosan quyidagi xujjatlar ro'yxati shakllanadi. Xususan, "Inson huquqlari umumjahon" deklaratsiyasi, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt, "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt, "Irqiyl kamsitishning barcha turlariga barham berish to'g'risida"gi xalqaro konventsiya, "Genotsid jinoyatlarning oldini olish va unga nisbatan jazolar to'g'risida"gi konventsiya, "Bola huquqlari to'g'risida"gi konventsiya, "Qochoqlar maqomi to'g'risida"gi konventsiya va

“Qochoqlarning maqomiga taalluqli” protokol, “Bag‘rikenglik tamoyillari” deklaratsiyasi, shuningdek, “Din va e’tiqodlarga asoslangan har qanday murosasizlik va kamsitishlarga barham berish to‘g‘risida”gi deklaratsiya, “Millati, elati, dini yoki tili nuqtai-nazaridan kam sonli bo‘lgan guruhga mansub shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi deklaratsiya, “Irq va irqchilik bid’atlari to‘g‘risida”gi YuNESKO deklaratsiyasi va boshqa shu kabi mintaq va sohaga oid hujjatlarni ko‘rsatish mumkin.

BMTning Bosh Assambleyasi 1990-1999 yillarni xalqaro huquq o‘n yilligi deb e’lon qilgan. Shu munosabat bilan ishlab chiqilayotgan dastur insoniyatning huquqiy jamiyat, umuminsoniy va milliy manfaatlarni uyg‘unlashtirishning har tomonlama vositasi bo‘lgan huquq sari harakat qilish jarayonini tezlashtirgan. Shuningdek, BMTning qochqinlar ishlari bo‘yicha oliy komissari o‘z faoliyatini olib borgan. Bunda 1999 yil Qozog‘iston “Qochoqlar statusi bo‘yicha” konventsiyaga qo‘shilgan.

O‘zbekiston sharoitida bu jarayonlar mamlakat Konstitutsiyasi, vijdon erkinligi, davlat tili to‘g‘risida qonun (1995 yil), millatlararo munosabatlar to‘g‘risida davlat siyosati kontseptsiyasi (2019 yil), Yangi O‘zbekiston rivojlanish strategiyasi (2022-2026 yillarga), “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa qonun va qonunosti hujjatlarda aks etgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt, “Irqiy kamsitishning barcha turlariga barham berish to‘g‘risida”gi konventsiya, “Millati, elati, dini yoki tili naqtai nazaridan etnik ozchilik bo‘lgan guruhlarga mansub shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi deklaratsiyani imzolagan.[1. 5-6] Shu asnda 1992 yil yil 31 yanvargacha holatda mamlakat bu hujjatlarni implementatsiya qildi.

Shuningdek, ularni ko‘rsak, O‘zbekiston Respublikasi 1991 yil 30 sentyabrda BMTning Inson huquqlari erkinliklari deklaratsiyasiga, 1991 yil 9 dekabrda bola huquqlari to‘g‘risidagi konventsiyaga, 1995 yil 6 mayda xotin – qizlar bilan munosabatlardagi barcha diskrimitatsiyani tugatish to‘g‘risidagi konventsiyaga qo‘shilgan [2. 170]. Shu jumladan, 2014 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning o‘zaro tengligi hamda milliy kamsitishlarni taqiqlash to‘g‘risida 8 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeksda, 600 dan ortiq qonunlarda o‘zining aksini topgan [3. 83]. Xususan, ma'muriy qodeksga ko‘ra tillardan foydalanishdagi to‘siqlar jamiraga tortilishiga sabab bo‘lishi belgilangan.

2014 yil 11 fevralda Jenavada BMTning Irqiy kamsitishlarni oldini olishga oid yig‘ilishida O‘zbekiston ma’ruzasi ham tinglandi hamda yuqori baholandi [4. 81]. Tojikiston Respublikasi suverenitetni qo‘lga kiritgandan so‘ng, inson huquqlari bo‘yicha quyidagi xalqaro shartnomalar ishtirokchisi bo‘ldi. 1994 yil 21 iyulda “Qochoqlar maqomi to‘g‘risida”gi konventsiyani (1951 yil) hamda “Qochoqlarning maqomi”ga taalluqli protokol (1967 yil)ni, 1993 yil 26 iyunda “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha turlariga barham berish to‘g‘risida”gi konventsiyani (1979 yil), 1994 yil 21 iyulda irqiy kamsitishning barcha turlariga barham berish to‘g‘risidagi xalqaro konventsiya (1965 yil), 1998 yil 13 noyabrda “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt (1966 yil), 1998 yil 13 noyabr Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning

bayonnomasini (1966 yil), 1998 yil 13 noyabrda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakti (1966 yil) tasdiqladi. Ayni paytda Tojikistonda huquqiy axborot, huquqiy ta’lim, jumladan, inson huquqlarini himoya qilish masalalari bilan shug‘ullanuvchi siyosiy partiya va 1923 ta nodavlat tashkilot faoliyat ko‘rsatmoqda.

Turkmaniston tashqi siyosati strategiyasining asosiy yo‘nalishlari doimiy betaraflik, “ochiq eshiklar” siyosati, yaxshi qo‘shnichilik, xalqaro huquq, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatmaslik, ularni o‘zaro tushunish orqali hal qilish, munosabatlarga aralashmaslik boshqa davlatlarning ichki ishlari, harbiy va siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik, o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish ustuvorliklaridan iborat bo‘ldi.

Jumladan, 1995 yil 12 dekabrda Turkmaniston davlatining betaraflik to‘g‘risidagi xujjatining qabul qilinishi davlatning bunda keyin rivojida muhim o‘rin tutdi. Turkmanistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotining o‘sha paytda uning tarkibiga kirgan 185 davlatning bir ovozdan qo‘llab-quvvatlagan "Doimiy Turkmanistonning betarafligi" qarori qabul qilindi. Ushbu muhim hujjatning qabul qilinishi Turkmanistonning xalqaro hamjamiyat tomonidan betaraf davlat sifatida tan olinishi va uning tinchliksevar tashqi siyosati degani edi. Turkmanistonning milliy darajada doimiy betarafligining siyosiy va huquqiy asosini, birinchi navbatda, Asosiy qonun – Turkmaniston Konstitutsiyasi, 1995 yil 27 dekabrda qabul qilingan “Turkmanistonning doimiy betarafligi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni tashkil etadi[5. 83]. Uning betaraflik, tinchlikni saqlash, xalqaro jarayonlarga keng ko‘lamli jalb etish, iqtisodiy hamkorlikning samarali modellarini ishlab chiqishga ko‘maklashgan. Bu barqaror tinchlik, xavfsizlikni o‘rnatish, barqaror rivojlanish va taraqqiyot uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida mintaqada va undan tashqarida mavjud muammolarni hal qilish uchun siyosiy platformani ta’minladi.

1998 yil Qirg‘iziston respublikasining Jo‘qorg‘a Kengashi xalqaro migratsiya tashkiloti bilan o‘zaro kelishuvini ratifikatsiya qilgan, unga ko‘ra sohaga oid xalqaro normalarni milliy qonunchilikka implimentatsiya qilish choralari ko‘rilgani bayon qilingan [6. 76]. 2009-2012 yillar Qirg‘iziston Respublikasi BMTda Inson huquqlarini himoya qilish kengashiga saylangani ma’lum [7. 90].

Demak o‘rganishlar davom etsa BMTning ixtisoslashtirilgan YuNESKO xalqaro tashkiloti o‘z faoliyatida etnik xilma-xilligini asrash, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni saqlash va boyitish, bag‘rikenglik g‘oyalarini tarannum qilish va boshqa qator vazifalarni o‘z zimmasiga olgan bo‘lib, ularni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 1995 yil qabul qilingan “Bag‘rikenglik deklaratsiyasi” millatlararo barqarorlik hamda etnik masalada xalqaro miqyosda yangi qadamni boshlab berdi. Bu orqali 16 – noyabr “Xalqaro bag‘rikenglik” kuni sifatida o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qildigan sana qilib belgilandi. O‘tgan vaqt mobaynida bu sana mintaqada davlatlarida alohida reja va keng nishonlanib kelindi. Shuningdek, 1993 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan YuNESKO qator loyihalarni amalga oshirib, milliy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutdi. Shuningdek, bu jarayon barcha mintaqada davlatlari bilan ham sodir bo‘lgan.

Xususan, 2010 yil Qozog‘iston tomonining shabbusi bilan YuNESKO tomonidan “Xalqaro madaniyatlarni yaqinlashtirish yili” deb e‘lon qilindi. 2010 yil aprel oyida Qozog‘iston hukumati BMTga a‘zo davlatlarga millatlararo munosabatlarni tartibga solishning “Qozog‘iston modeli”ni taqdim etgan.

Shu bilan aytish mumkinki, YuNESKO tashkiloti dunyoda tinchlik, millatlar va elatlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida bag‘rikenglikka oid 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar, konventsiyalar qabul qilgani ma‘lum.

Yevropa mintaqasida mustaqil davlatlarning teng huquqli asosdagi siyosiy va iqtisodiy hamkorligi, etnik ozchilikka oid huquqlarga oid umum Yevropa qoidalarini joriy etish va amalga oshirishda YeHXT muhim o‘rin tutadi. Mintaqa davlatlari o‘tgan asrning 90 – yillaridan boshlab YeHXT ishida ishtirok etib keladi. Xususan, O‘zbekiston ushbu tashkilot bilan doimiy muloqotni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, o‘zaro tajriba almashish hamda ozchilik huquqlarini himoya qilishda munosabatlar o‘rnatilgan.

YeHXT milliy ozchilik ishlari bo‘yicha oliy komissari, inson huquqlari va demokratik institutlari bo‘yicha byurosi mavjud bo‘lib, mintaqa davlatlari uning ishida ishtirok etadi.

Shu qatorda Qozog‘iston ham ushbu tashkilot bilan yetarli darajada hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Ma‘lumot uchun aytish mumkinki qozog‘istonlik vakil YeHXTning kam sonli millatlara ishi komissari bo‘lib mehnat faoliyatini olib borgan.

Shuningdek, 1995 yil O‘zbekiston Durban deklaratsiyasi ratifikatsiya qilgan. Bu umumjahon miqyosdagi xalqaro hujjat bo‘lib millatlararo do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

1995 yil iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Yevropa Hamjamiyati delegatsiyasini qabul qildi [8. 121]. Unda mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati hamda etnik va fuqarolik masalalariga oid fikrlar almashilgan [9. 128]. Ya‘niki, bu sohada O‘zbekiston xalqaro huquq normalarga qat‘iy rioya qilib, standartlar bo‘yicha ish ko‘rayotgani alohida qayd etilgan. Jumladan, fuqarolikni olishda davlat tilini bilish majburiyatining mavjud emasligi ijobiy holat ekanligi, ozchilikning o‘z ona tilini rivojlantirishga berilgan imkoniyat, ma‘lum joylarda ko‘pchilik bo‘lib yashovchi milliy ochilik uchun o‘z ona tilida ta‘lim olish uchun berilgan imkoniyat, hattoki mahalliy davlat idoralarida ham muloqotda o‘zlarining tilidan foydalanishi, rus tili millatlararo muloqot tili ekanligi, gazeta va jurnallarning 12 ta tilda chop etilishi e‘tirof etilgan [10. 156].

1999 yil Qirg‘iziston xalqi assamblyasining besh yilligida ishtirok etgan YeHXTning kam sonlilar ishi bo‘yicha kommisari Maks van der Stuul “Qirg‘izistonda millatalarro borasida qilingan ishlarni butun dunyoga namuna qilish mumkinligi haqida gapirdi” [11. 207]. Shuni aytish kerakki, mintaqa davlatlaridan O‘zbekiston bilan YeI munosabatlari XX asrning 90 yillardan faollashgan bo‘lsa, XXI asr boshidan Qozog‘iston – YeI munosabatlari sezilarli natijalarni ko‘rsatdi. Aynan shu asrning birinchi choragiga kelib Markaziy Osiyo va YeI umum formati vujudga keldi.

Agar qabul qilingan xalqaro hujjatlarning mintaqaviy darajadagisi va ularning ijrosi haqida ma'lumot berilganda shuni ham aytish mumkinki, dastlab MDH faoliyati hamda uning shofeligida qabul qilingan hujjatlar mintaqadagi millatlararo barqarorlikka imkon berib sharoit yaratganini ko'rish mumkin. Masalan, birgina MDH doirasida "Milliy ozchiliklarga mansub shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi konventsiya 16 ta moddadan iborat bo'lib, unga 2001 yil 22 fevralda Tojikiston Respublikasi, 2003 yil 21 avgust kuni Qirg'iziston Respublikasi qo'shilgan [12]. Ushbu konventsiya xalqaro huquq normalarida milliy ozchilikning barcha huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, uni davlatlar tomonidan amalga oshirish nazarda tutilgan. Xususan, ushbu hujjatning mazmun mohiyatida millatlararo barqarorlik ustuvorlik kasb etib, uning ayrim moddalarida, jumladan, 10-moddasida. Har bir ahdlashuvchi tomon qonunchiligiga muvofiq davlat tilini o'rganish, mavjud ehtiyojlarni hisobga olgan holda milliy ozchiliklarning o'z ona tilini o'rganishi va ona tilida ta'lim olishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarurligi qayd qilingan. Konventsiyaning 9-moddasida turli darajadagi ta'lim muassasalarini va ularning bo'linmalarini ochish va saqlash, milliy ozchiliklar tillarida ta'lim olib boriladigan ta'lim muassasalari va ularning bo'linmalarini dasturlar, o'quv qo'llanmalar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash maqsadida ahdlashuvchi tomonlarning ta'limga mas'ul davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, mazkur tillar, ta'lim muassasalari va bo'limlarda ishlash uchun mutaxassislar tayyorlashga ko'maklashish, milliy ozchiliklarning madaniy merosini saqlash va o'rganish, shu jumladan ularning tarixi va madaniyati yodgorliklarini muhofaza qilishni ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rishi, ta'lim muassasalari va ta'lim tashkilotlarida davlat tarixi va madaniyatini o'rganishda milliy ozchiliklarning tarixi va madaniyatini hisobga olish hamda milliy hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirishga ko'maklashish kabi maqsadlar aks ettirilgan.

Buni umuman 1991-2021 yillar davomida MDH tashkiloti doirasida etnik, til, madaniyat, ijtimoiy soha, xavfsizlik va mintqa barqarorligiga oid barcha hujjatlarning mazmuni ko'rish mumkin bo'ladi.

1994 yil O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi MDH a'zo davlatlar hududida etnik ozchilikning huquqlarini, til va diniy e'tiqodlarini ta'minlashga oid hujjat loyihasi ustida ish olib borishda ishtirok etgan [13. 18-19]. Uning 3-moddasida barcha tomonlar ozchilikni tashkil etuvchi fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy huquqlari va erkinliklarini inson huquqlaridagi umum xalqaro standartlar bilan ta'minlanishi belgilangan. 4-moddasida har bir tomon etnik ozchilikni o'z etnik mansubligini saqlash, til, madaniy va diniy erkinliklarni ta'minlash vazifasi yuklangan [14. 35-38].

Turkiy tilli tashkilotlar doirasida o'zligini anglash, etnik yaqinlashish, qardoshlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy – siyosiy hamfikrlilikni ta'minlashga qaratilgan.

XULOSA

Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish orqali davlatlararo munosabatlarning institutsional va huquqiy asoslarini mustahkamlab kelmoqda. Mazkur hujjatlar tomonlarning oʻzaro hamkorlik jarayonida belgilangan majburiyatlarga rioya etishini taʼminlash, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda gumanitar sohalaridagi aloqalarni izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu kelishuvlar mintaqada barqarorlik, xavfsizlik va oʻzaro ishonch muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib, Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro huquq normalari va tamoyillariga sodiqligini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Права человека. Выпуск 1. - Т.: Национальный центр по правом человека. 1992. - С.5-6
2. OʻzR PAA 975-fond. 20-roʻyxat. 251-ish. 170-varaq.
3. OʻzR PAA 975-fond. 30-roʻyxat. 2507-ish. 83-varaq.
4. OʻzR PAA 975-fond. 30-roʻyxat. 2507-ish. 81-varaq.
5. Б. Захыров Внешнеполитический курс Туркменистана - торжество политики позитивного нейтралитета // Россия и Центральная Азия: новые перспективы: материалы междунар. науч. конф., посвященной 25-летию установления дипломатич. отношений между Рос. Федерацией и государствами Центральной Азии (Москва, 14 июня 2017 г.) / [отв. ред. А.Л. Чечевишников]; Моск. гос. ин-т междунар. отношений (ун-т) М-ва иностр. дел Рос. Федерации, Ин-т междунар. исследований. - Москва : МГИМО-Университет, 2018. - С.83.
6. QzR MDA 1445-fond, 17-roʻyxat, 3986-ish, 76-varaq.
7. QzR MDA 2924-fond, 1-roʻyxat, 119-ish, 90-varaq.
8. OʻzR PAA 975-fond. 20-roʻyxat. 251-ish. 121-varaq.
9. OʻzR PAA 975-fond. 20-roʻyxat. 251-ish. 128-varaq.
10. OʻzR PAA 975-fond. 20-roʻyxat. 251-ish. 156-varaq.
11. Manba: Askar Akayev. Pamyatnoye desyatiletie. "Uchkun" Bishkek. 2001 g. - B.207.
12. Qarang // Конвенция об обеспечении прав лиц, принадлежащих к национальным меньшинствам - ИПС "Әділет".
13. OʻzR PAA 975-fond. 20-roʻyxat. 64-ish. 18-19-varaqlar.
14. OʻzR PAA 975-fond. 20-roʻyxat. 73-ish. 35-38-varaqlar.

Хомитов Р. Х.

PhD., доцент кафедры «Новейшая история Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
xamitovravshan7@gmail.com

ОБ ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВ НАЦИОНАЛЬНЫХ МЕНЬШИНСТВ В ГОСУДАРСТВАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются такие аспекты, как участие в нормах международного права в многоэтнических обществах стран Центральной Азии, обеспечение прав и свобод национальных меньшинств в них. В частности, раскрываются права человека в странах региона, в частности, содержание государственной политики в отношении национальных меньшинств.

Ключевые слова: межнациональное согласие, международное право, права человека, документы, национальное меньшинство, диаспора, толерантность, гуманность, солидарность.

Khomitov R. X.

PhD., associate professor at the department of «Modern history of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
xamitovravshan7@gmail.com

REGARDING THE PROVISION OF NATIONAL MINORITY RIGHTS IN THE CENTRAL ASIAN STATES

ABSTRACT

In this article, aspects such as participation in international law norms in multi-ethnic societies in Central Asian countries, provision of rights and freedoms of national minorities in them are studied. In particular, human rights in the countries of the region, mainly the contents of the state policy regarding the national minority are described.

Keywords: international harmony, international law, human rights, documents, national minority, diaspora, tolerance, humanity, solidarity.